

Raqamli Muhitda Oliy Ta'lim Samaradorligini Oshirish Usullari: Chet Tili Va Raqamli Kompetentsiyalarini Shakllantirish

Valiyeva Nasiba Xadiyatullayevna¹

Annotatsiya: Milliy ta'limni takomillashtirish jarayonida har yili zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati ortib bormoqda, ularning joriy etilishi ta'limni modernizatsiya va rivojlantirish, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish va ta'limni fanga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda.

Maqolada chet tilini o'qitishda Google tarjimon ilovasi yordamida til va raqamli kompetentsiyalarini shakllantirish masalasi ko'rib chiqiladi. Izlanish jarayonida oliy ta'limda raqamli ta'limni o'rni tahlil qilinadi. O'qitish metodlariga, smartfondagi Google tarjimon va ovozli xizmat ilovasidan foydalanib til ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Tajriba natijalari keltirilib, mobil raqamli texnologiyani til o'qitishda afzalliklari va kamchiliklari aniqlanadi, ba'zi muammolarga yechim topiladi. Samarali o'qitish usullari sifatli ta'limni ta'minlashda, inson kapitalini rivojlantirishda, shuningdek jamiyat va davlat farovonligini oshirishda, umuman olganda, iqtisodiyotimizni yangi pog'onaga chiqarishda ahamiyati xulosa qismida keltiriladi.

Kalit So'zlar: oliy ta'lim, chet tilini o'qitish, raqamli texnologiya, Google tarjimon, usul.

KIRISH. Ma'lumki, axborotlashuv jarayoni iqtisodiy rivojlanishni yangi bosqichga olib chiqdi. Barcha turdag'i tashkilotlarda raqamlashtirish jarayonini joriy etish bu raqamli axborot texnologiyalarning umumjahon tarqalishiga javobidir. Axborotni va bilimni 4.0 Inqilob mahsuloti sifatida ko'radigan bo'lsak, u jamiyatimizning xar bir guruhining ajralmas bo'lagi bo'lib qoldi. Ijtimoiy tarmoqlarni ko'payishi, smartfonlarni sonini ortishi, internetga ulanish imkoniyatlari, virtual o'qitish va sun'iy intellektni tarqalishi bugungi dunyon o'zgartirmaqda.

Milliy ta'limni takomillashtirish jarayonida har yili zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati ortib bormoqda, ularning joriy etilishi ta'limni modernizatsiya va rivojlantirish, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish va ta'limni fanga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda [1]. Demak, ta'lim sifatiga ahamiyat berilar ekan, chet tilini malakali kadrlarga yangicha usullar bilan o'qitish muammozi o'z dolzarbligini yoqotmaydi.

Bizning oldingi maqolamizda [2] biz til muhitini yaratish uchun magistratura tinglovchilarni yangiliklar bilan sheriklashish jarayoniga jalb etishligini ta'kidlaganmiz. Bu jarayonning qator afzalliklarini ham keltirib uning samarasini isbotlagan edik. Mazkur maqolada oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni o'qitish jarayoniga olib kirish masalasiga to'xtalib o'tamiz va bu jarayonni sifatli ta'lim berishda va mutaxassislarni til va raqamli ko'nikmalarini oshirishda foydasini tasdiqlab beramiz.

METODOLOGIYA. Izlanish olib borishda experiment usulidan foydalandik.

Biznes ingliz tili magistratura tinglovchilari uchun fan amaliy shaklda olib borilishini e'tiborga olib so'zlashish ko'nikmasini rivojlantirishga urg'u beriladi. Ammo tinglovchilarning yosh jihatidan va til bilish darajalarida farqlari borligi sabab til o'rganishda ba'zi muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, vazifalarni o'z vaqtida bajarmaslik, darsda ishtiroy etmaslik, mobil qurilmasiga chalg'ib darsni

¹ Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, Dosent v.v.b.



tinglamaslik. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun raqamli texnologiyalarni jalb etib, tinglovchilarni o'qishga rag'batlantirish usulini ishlab chiqib, dars jarayoniga tadbiq qildik.

ADABIYOT SHARHI. Mazkur mavzuni yoritishda ta'lim sohasida qabul qilingan huquqiy hujjatlar, internetda joylashtirilgan elektron qo'llanmalar, jurnallar, ilmiy amaliy anjumanlar materiallaridan va saytlardan foydalanildi.

Zamonaviy O'zbekistonda aholining ta'lim darajasi oshib bormoqda, bu davlatning ta'lim sohasidagi siyosatining ijobjiy natijasidir. "Ta'lim to‘g‘risida"gi Qonunning yangi tahriri [3] qabul qilingan bo‘lib, u 1997 yildan beri amalda bo‘lgan eskirgan "Ta'lim to‘g‘risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida"gi qonunlar o‘rnini bosadi, va yuqoridagilarning isboti bo‘lib xizmat qiladi. Prezidentimiz tomonidan 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarorning imzolangani soha rivojining yangi bosqichi bo‘ldi [4]. Ta'limga yo‘naltirilgan investitsiya nafaqat mamlakatni rivojlantirishning maxsus strategiyasi, balki inson kapitali va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosatdir. Buning natijasida inson kapitali takomillashib, moddiy farovonlik va sog‘lom turmush tarziga erishiladi [5, 6]. Inson kapitalining eng muhim tarkibiy qismi ta'lim sifatidir. Sifatli ta'lim mukammallikka olib keladi. Zamonaviy dunyoda shaxsiy raqobatbardoshlik va dolzarblikni ta'minlash uchun professional muhiddagi o‘zgarishlarni doimiy ravishda kuzatib borish, bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirish zarur.

M.Sobirjonovning fikriga qo‘shilib ta‘kidlash mumkinki, hozir axborot raqamli texnologiyalar orqali uzatilmoqda, o‘z navbatida, fan va ta'limga asoslangan jamiyatda inson kapitali qadri ham o‘zgarib bormoqda. Inson endi katta hajmdagi axborotni xotirada saqlay olmaydi, chunki uni istalgan vaqtida tarmoqdan topish imkonibor. Endi mavjud ma'lumotlar bilan ishlash va yangilarini yaratish qobiliyati oldingi o‘rnlarga chiqdi. Inson kapitalining mohiyati ham shunga borib taqaladi [5].

Raqamli yechimlar yordamida ta'lim texnologiyalarning afzalliklarini ta'minlash va kuchaytirish muhimdir, zero turli yechimlarning qiymati asosida insonning rivojlanishi va farovonligi turadi [7].

A.V.Bobilyev ta'kidlaganidek, "Raqamli texnologiyalarning tarqalishi o‘quv jarayonini tashkil etish shakllari va usullarini, ta'limning maqsad va mazmunini, ta'lim munosabatlarining butun tizimini sezilarli darajada o‘zgartiradi" [8]. Binobarin, zamonaviy bilim va ko‘nilmalarga ega bo‘lgan mutaxassis iqtisodiy rivojlanishni ilgari pog‘onalarga olib chiqaradi.

Oliy ta'limda malakali kadrlarni o‘ziga xos xususiytlarini Mikaela Cozmaa ta'riflab bergen: "...ish tajribaga ega talabalar ko‘proq o‘rganish tajribasiga ega va bu jihat ham foydali, ham muammoli bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, bir tomonidan, ular boshqa sharoitlarda yaxshi xizmat qilgan yaxshi ishlab chiqilgan o‘rganish strategiyalariga ega va o‘qituvchi ularga til o‘rganishda ham ushbu strategiyalardan o‘z foydalari uchun foydalanishga yordam berishi mumkin. Boshqa tomonidan, bu insolar ingliz tili sinfiga o‘quv jarayoni haqida ma’lum umidlar bilan kelishadi va bu umidlar bajarilmasa, tinglovchilar yangi ta'lim kontekstiga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lishlari mumkin." [9].

Ta'lim – bu nafaqat kelajak garovi, balki hozirgi yoki kelajakdagagi har qanday muammolarni hal qilish imkonini beradigan nomoddiy qadriyat. Bugungi kunda dunyodagi vaziyat o‘z kasbining barcha nozik tomonlarini biladigan, o‘zaro faoliyatning har bir bosqichida bog‘lab turuvchi bo‘g‘inga aylangan soha, ya’ni axborot-kommunikatsion texnologiyalari (AKT)ning rivojlanishi masalalari yechimiga ijodiy yondasha oladigan avlodni tarbiyalash naqadar muhimligini ko‘rsatmoqda [10].

TAHLIL VA NATIJALAR. Metodikada usul, yo‘llar yig‘indisi metodni tashkil qiladi. Metodik yo‘l, usul o‘qitishda qo‘llaniladigan kichik metodik ish faoliyatidir. Chet tili o‘qitishning vositasi esa o‘quv jarayonida ta'lim-tarbijani amalga oshirishda ishlatiladigan o‘quv-metodik qurollarni o‘z ichiga oladi. Ular chet tili o‘qitish, o‘rganishni osonlashtiradi. I. A. Zimnyayaning fikriga ko‘ra, faoliyatning harakatlari, ya’ni fikr shakllanishning leksik, grammatic va fonetik tomonlari faollashgan darajada ishlab chiqilishi zarur. Boshqa so‘z bilan aytganda, fikrning o‘zi emas, til vositalari faollashgan bulishi mumkin. Demak, leksik, grammatic va fonetik nutq ko‘nikmalarining faollashgan komponentlari



hisoblanadi. Harakatning faollahganligi malakaning asosiy belgisi bo‘lib, u harakat yoki operatsiyani ko‘p marta bajarilganligi natijasida shakllanadi [11].

Pedagogika fanida o‘qituvchilarning amaliy tajribasini o‘rganish va umumlashtirish asosida ta‘lim jarayonining o‘ziga xos holatlari va sharoitlarining turli kombinatsiyalariga qarab o‘qitish usullarini tanlashga ma’lum yondashuvlar ishlab chiqilgan.

O‘qitish usulini tanlash quyidagilarga bog‘liq:

- o‘quvchilarni ta‘lim, tarbiyalash va rivojlantirishning umumiylaridan hamda zamonaviy didaktikaning yetakchi tamoyillaridan;
- o‘rganilayotgan fanning xususiyatlari bo‘yicha;
- muayyan o‘quv fanini o‘qitish metodikasi xususiyatlari va uning o‘ziga xosligi bilan belgilanadigan umumiylaridan usullarni tanlashga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida;
- muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni haqida;
- u yoki bu materialni o‘rganish uchun ajratilgan vaqt bo‘yicha;
- oquvchilarning yosh xususiyatlari bo‘yicha;
- o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi (ta‘lim, yaxshi xulq-atvor va rivojlanish);
- ta‘lim muassasasining moddiy jihozlanishi, jihozlar, ko‘rgazmali qurollar, texnik vositalarning mavjudligi to‘g‘risida;
- o‘qituvchining imkoniyatlari va xususiyatlari, nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi, uslubiy mahorati, shaxsiy fazilatlari bo‘yicha.

O‘qituvchi o‘qitishning metod va usullarini tanlash va qo‘llash orqali yuqori sifatli bilim, aqliy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, o‘quvchilarning bilish, eng muhimmi, mustaqil faoliyatini ta‘minlaydigan eng samarali ta‘lim usullarini topishga intiladi [12]. Har bir o‘qituvchining vazifasi nafaqat tayyor topshiriqlarni berish, balki o‘quvchilarga ularni mustaqil bajarishga o‘rgatishdir.

Og‘zaki nutqni o‘zlashtirish uchun ingliz tili o‘qituvchisi va metodisti Garold Palmer (Palmer, 1877-1950) quyidagi usullarni taklif qildi:

1. Til qiyinchiliklarini jihatlarga (fonetik, imlo, etimologik, semantik, sintaktik) ajratish.
2. Og‘zaki nutqni ikki yo‘nalishda - gapirish va tushunishda o‘rgatish.
3. Passiv materialning to‘planishi, so‘ngra uni faol ko‘paytirish.
4. So‘zlarni semantiklashtirishda quyidagi usullardan foydalanish: vizualizatsiya, tarjima, izohlash, kontekst.
5. Nutq namunalarini yodlash orqali jamlash.
6. Chastotasi, strukturaviy muvofiqligi va maqsadga muvofiqligi asosida lug‘atni oqilona tanlash.
7. Mavzu bo‘yicha matnlarni tanlash, lug‘atni aniqlash - minimal va o‘qish turlari.

Palmer usulida eng katta qiziqish og‘zaki nutqning to‘g‘ri ko‘nikmalarini yaratish uchun mashqlar tizimi bo‘lib, u quyidagi turlarga bo‘linadi: sof retseptiv ish (ongsiz tushunish, ongli og‘zaki assimilyatsiya, quyidagi tartiblarni o‘rgatish, umumiylar savollarga bir bo‘g‘inli javoblar); retseptiv-imitativ ish (o‘qituvchidan keyin tovushlarni, so‘zlarni va jumlalarni takrorlash); an‘anaviy suhbat (savol va javoblar, buyruq va javoblar, yakuniy jumlalar); tabiiy suhbat [13].

Pedagogikada tilni tarjima orqali o‘rganish kabi usul mavjud. Bu usul matnlarni tarjima qilishga asoslangan bo‘lib, uning davomida odam o‘z so‘z boyligini kengaytiradi va iboralarda uchraydigan grammatik qoidalarni o‘rganadi. Ish turlari:

- lug‘at bilan ishslash,



- ovoz chiqarib ham, ovozsiz ham faol o‘qish;
- mavzu bo‘yicha lug‘at bilan shaxsiy lug‘at yuritish.

Ushbu turdagи o‘rganish repetitor tomonidan nazorat qilinishi kerak, chunki so‘zlearning talaffuzini noto‘g‘ri o‘rganish va grammatik qoidalarni tushunmaslik xavfi mavjud [14].

N.I.Gerasimovaning fikriga qo‘silib shuni aytish mumkinki yoshi katta “ talabalarda axborot texnologiyalari, ya’ni smartfon ilovalari bilan ishlash bo‘yicha zarur ko‘nikmalar yo‘q. Aksariyat talabalar ma’lum ko‘nikmalarga ega bo‘lganligi sababli, ularda ma’lum bir faoliyat turi uchun, zarur ma’lumotlarni qidirish, zarur aloqalarni o‘rnatish, mavjud kognitiv qobiliyatlar doirasida turli til muammolarini hal qilish uchun kerak ko‘nikma va bilimlar yetarli ekanligiga ishonch hosil qilish kerak, chunki ularda mavjud ko‘nikmalar o‘yinlar, kliplar va videolarni tomosha qilish yoki oddiygina chatdagi suhbat bilan chegaralanib qoladi.” [15].

Raqamli kompetensiya axborot kommunikativ texnologiyalardan ishda, o‘qish jarayonida, jamiyat xayotida ishtirok etish va dam olish maqsadida ishonch, qat’iyatlik va ijodiy yondashuv bilan foydalanishni bildiradi. Ma’lum bir texnologiyani maxsus imkoniyatlardan foydalanishni o‘rganish insonga samarali natijaga erishish yo‘lini ochadi. N.I.Gerasimovaning Google tarjimon tug‘risida quyidagi fikr bildiradi:“Afsuski, tarjima sifati har doim ham yaxshi emas, lekin talabalarning zamonaviy vositalardan foydalanish qobiliyatini cheklash haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi, lekin ularni yaxshi va oqilona foydalanishga o‘rgatish juda mumkin. Onlayn tarjimondan foydalanib, o‘quvchilarga elektron tarjimon xatolarga yo‘l qo‘yishini ko‘rsatish kerak, tarjimon yordamida bir xil gapni avval rus tiliga, keyin esa ingliz tiliga tarjima qilish misoli. Biroq, o‘zaro havolalar bilan elektron tarjimondan foydalanish hatto talabani o‘ziga jalb qilishi va uni lingvistik tadqiqotlarga undashi mumkin.”[15].

Texnologik kashfiyotlar va yutuqlar asrida xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha ilovalar uchun axborot bozori to‘la. Bugungi kunda mustaqil tarzda til bilish darajasini oshirmoqchi, turli darajadagi bilimlarga ega bo‘lgan talabalar uchun mo‘ljallangan juda ko‘p sonli dasturlar taklif etiladi. Masalan, Terabayt.uz sayti mobil telefonlar uchun mo‘ljallangan ingliz tilini o‘rganish uchun eng yaxshi 15 ta ilovani taqdim etadi. [Illovaga qarang]

Yuqorida keltirilgan barcha ma’lumotlarni tahlil qilib barcha tinglovchilarda mavjud internetga ulanish imkoniyatlar bilan bo‘lgan mobil qurilma yordamida chet tili o‘rgatishni taklif qilamiz.

Chet tilini o’qitishda quyidagi muammolarga duch keldik:


- tinglovchilarning yosh jihatidan farqlari;
- til bilish darajalarida farqlari;
- vazifalarni o‘z vaqtida bajarilmaslik;
- darsda ishtirok etmaslik;
- mobil qurilmasiga chalg’ib tinglamaslik.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun raqamli texnologiyalarni, yani mobil qurilmadagi Google tarjimon va ovozli xizmati ilovasidan foydalanib, tinglovchilarni jalb etib, o‘qishga rag‘batlantirish usulini ishlab chiqdik va tadbiq qildik.

Tajriba BTOMdagi asosan sirtqi guruhalarda o‘tkazilgan. Bunda *baxorgi* semestrda KBBI yo‘nalishidagi 1ta guruh (34 tinglovchi), KB yo‘nalishidagi 2 ta guruh (70 ta tinglovchi), PM yonalishidagi 4 guruh (78 tinglovchi); *kuzgi* semestrda KB yonalishining kunduzgi 1ta guruhi(4 tinglovchi) va MBA yo‘nalishidagi sirtqi 1ta guruh (23 tinglovchilar). Jami 209 tinglovchi qatnashgan.

Ulardan 45 foizi chet tilini elementary darajasiga ega, 35 foizi pre-intermediate va intermediate darjasasi, 10 foizi boshqa tillarni o‘rgangan va 10 foizini erkin so‘zlasha oladiganlar tashkil etdi. Yoshi jihatdan 25-30, 31-36, 37-45 guruhlarga bo‘lishimiz mumkin.





Biznes ingliz tili amaliy mashg'ulotlari yangiliklarni gapirib berish vazifasi bilan boshlanar edi. Ushbu usul raqamli texnologiya yordamida amalga oshirilganligi sabab tinglovchilarning deyarli **100 foizi** bu jarayonga jalb etilganini qayd etamiz. Raqamli texnologiya yordamida natijaga erishish ularda chet tilida gapishtida dadillikni, qa'tiyatlikni shakllantirdi. Birgalikda yangiliklardan xabardor bo'lish, fikr almashinish turli yosh guruhlariga mansub tinglovchilarni birlashtirdi va til ko'nikmasini oshirishga yordam berdi, natijada bilish darajasini oshirishga olib keldi.

Barchamizning mobil telefonlarimizda mavjud rasmiy ijtimoiy tarmoqlardan manba sifatida foydalanish tinglovchilar chet tili bo'yicha bilimlarini oshirishda ajoyib natjalarga erishishlari mumkin. Dars davomida smartfonlar yordamida tinglovchilarning faol ishtirotini ta'minlab, til bilan raqamli ko'nikmalarini uyg'unlikda rivojlantirish mumkin.

Jamiyatimizda va jahonda ro'y berayotgan voqealardan xabardor bo'lmoq, ular xususida o'z fikri bildirmoq va taalluqli xulosa chiqarish insonga xosdir. Xususan, bu kabi ko'nikmalar rahbar kadrlarda namoyon bo'lishi juda muhim. Ona tilida bu axborot almashinuv jarayonini oddiy xodisa deb bilsak, ingliz tilida va umuman olganda, boshqa chet tilida buni amalga oshirish tilni bilish darajasi sust bo'lgan tinglovchilar uchun muammo tug'diradi. Ayniqsa, iqtisodiy va ijtimoiy mavzuda suhbat qurishda so'z topa olmay mutaxassis-xodim ishtirotchi emas, balki passiv tinglovchi bo'lishi tayin. Bu kabi muammolarni biz smartfonlardagi Google tarjimon yordamida bartaraf etishimiz mumkin.

Biznes ingliz tilini darsini yangiliklar bilan sheriklashish usulda boshlash samarali natija berishi mumkin. Magistratura tinglovchilarga darsning boshida dunyo va mamlakatimizda sodir bo'lgan 1ta yoki 2ta (bilish darajasiga qarab) yangiliklarni gapirib berishni vazifa qilib beramiz. 5-10 daqiqa ichida ona tilida yangilikni topib, asosiy mazmunini 5wh questions (who, what, where, when and why), ya'ni 5ta savolga (kim, nima, qayerda, qachon va nima uchun) javoblarini o'z ichida jamlagan holda ona tilida 1-2 gap bilan yoritib berishligi talab etiladi. Keyin Google tarjimonga solib uning tarjimasini ovozli qilib eshitish orqali qiyin talaffuz etiladigan so'zlarni qayta eshitib takrorlash muhim. Daftarga ko'chirib yangi so'zlarni tagiga chizish darkor. Tayyorlanishga berilgan vaqt tugaganda imkon qadar barcha tinglovchilardan natijani so'rash jarayoni boshlanadi va orada o'zlarning fikr mulohazalarini ham bildirishni talab qilinadi. Doimiy ravishda darsning 15-25 daqiqasini ushbu mashg'ulotga bag'ishlash natijasida tinglovchilarda ijobiy o'zgarish kuzatiladi. Albatta, til bilish darajasi yuqori bo'lgan tinglovchilar ham bor, ammo ularga ham ushbu jarayonda ishtirot etish birdek zavqli ekanini guvoh bo'ldik.

Biz taklif etayotgan raqamli texnologiyaga asoslangan o'qitish usuli ikki semestr davomida magistratura tinglovchilari bilan tajribadan o'tdi va ijobiy natjalarni berdi. Ushbu usulni muhim jixati shundaki, Google tarjimonga ona tilida gapni to'g'ri kiritish kerak bo'ladi, aks xolda tarjima sifatsiz bo'lib xatolikka yo'l qo'yiladi.



Mazkur usulni salbiy tomonlari	Mazkur usulni ijobiy tomonlari
tinglovchilarning smartfonlari quvvati tugagan bo‘lishi mumkin, sinf xonada biroz shovqinlik kuzatiladi	<ul style="list-style-type: none"> -faol ishtirok; - raqamli ko’nikmani shakllantirish; - bir biriga yordam berish; - mustaqil izlanish; - yangiliklardan chetda qolmaslik; - ijodiy fikr yuritish; - yangi so’zlar bilan tanishish va yod olish; - so’zlarni to‘g‘ri talaffuz etish va gapni xatosiz o‘qish; - to‘g‘ri tuzilgan gapni eslab qolish; - mustaqil gap tuzishni urinish; - o‘z fikr mulohazalarni bildirganda yangi termin va so’zlarni ishlata bilish; - bir-birini tinglash, - chet tilida gapirishda dadillikni, qat’iyatlikni shakllantiradi.

Hozirgi kunda chet tili o’rganishda kommunikativ metod – barcha nutq va til aspektlarining (gapirish, tinglash, o‘qish, yozish, so‘z boyligi, grammatika, fonologiya) birgalikda o’rganilishi muhim hisoblanadi. Biz tajribadan o’tkazgan oqitish usulimiz ma’lum darajada kommunikative metodga taalluqli.

Mazkur mashg’ulotni olib borishda pedagogning faoliyati ahamiyatlidir. Tinglovchilar izlanish davomida bir xil ma’lumotni topib, tarjima qilingan ma’lumotni to‘g‘riligiga e’tibor berishni va ushbu holatda Google tarjimon bergen so’zlarning kontekstga mos kelishini, sinonim so’zlarni ishlata bilishga doir tushuntirishni o‘qituvchi o‘z zimmasiga olishi kerak. Shuningdek, vaqtini taqsimlashni va tinglovchilarga yordam berishni amalga oshirishi kerak bo‘ladi.

Mustaqil ish sifatida tinglovchilarga xar kuni 1ta yoki 2ta xabarni tarjima qilib, o‘qilishini tinglab daftarga yozib olish vazifa berish lozim. Va bu ishlari uchun joriy nazoratga ball qo‘shilishini ta’kidlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

XULOSALAR. Sifatlari ta’lim kelajagimiz poydevori. Inson kapitalini rivojlantirish uchun raqamli ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish bugungi zamонави о‘згаришларинг катта ўтуғ‘идеб та’кидлаш мумкин. Raqamli yechimlar yordamida ta’lim texnologiyalarning afzalliklarini ta’minalash va kuchaytirish muhimdir, zero turli yechimlarning qiymati asosida insonning rivojlanishi va farovonligi turadi.

Jamiyatda sifatlari bilimga ega mutaxassislar soni oshib borishi ta’limning sifati yuqoriligidan darakdir. Ta’limni berishda inson-jamiyat-davlat konstitutsiyaviy tamoyilini amalga oshirish niyatida xarakatlanish kerak, chunki biz bugun tayyorlagan bilimli mutaxassis yurtimizning iqtisodiy farovonligiga xissasini qo’shadi.

Biz taklif etgan Google tarjimon va uning ovozli funktsiysidan foydalaniib til o’rganish usulimizni quyidagi muammolarni bartaraf etishda samarali chora sifatida qo’lladik:

Muammo	Qo’llanilgan usulni natijasi
1.tinglovchilarning yosh jihatidan farqlari darsga bo‘lgan munosabati turlicha.	- fanga qiziqish kuchaydi
2. til bilish darajalarida farqlari sabab, chet tilni bilmagan jim o‘tiraveradi, xato qilishdan qo‘rqadi.	-Google tarjimon yordamida xatoliklarga baham berib to‘g‘ri javobini o‘qib beradi, yangi so’zlani yodlaydi, talaffuzini to‘g‘irlaydi.
3.vazifalarni o‘z vaqtida bajarmaslik	- dars davomida barcha ishtirok etadi, uy vazifasini qanday usulda bajarishini biladi.
4.darsda ishtirok etmaslik	joriy nazoratga ball qo‘silishi tinglovchilari



5.mobil qurilmasiga chalg'ib darsni tinglamaslik	rag'batlantiradi. - smartfon yordamida vazifani bajarish qulaylik yaratadi.
--	--

Yangi o'qitish usulimiz smartfon yoki notebooklardan foydalagan holda barcha oliy ta'limga muassasalarda chet tilini va biznes ingliz tilini o'rganishda tadbiq etilsa, albatta o'zining ijobiy samarasini beradi. Oliy ta'limga tinglovchilarga Google tarjimon ilovasi yordamida iqtisodiy va ijtimoiy mavzularda yangiliklarni chet tilida bayon etish va fikr mulohazalar yuritishning eng katta foydasi bu malakali kadrlarni dunyoqarashini kengaytirishdadir. Qolaversa, raqamli ko'nikmalarni va til ko'nikmalarni shakllantirishda ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Chet tilida xorijlik xamkorlar bilan muloqot qilishda dadillik, qat'iyatlik xissini oshiradi.

Ilova. Ingliz tilini o'rganish uchun 15 ta eng yaxshi ilova - Terabayt.Uz

Lingualeo	Poliglot 16	Memrise	easy ten	BBC Learning English
Rosetta Stone	Duolingo	Voxy	Ремемба	English Grammar in Use
15 000 Useful Phrases	WordBook	Puzzle English	Words	LearnEnglish Grammar

ADABIYOTLAR

- Валиева Н.Х. К вопросу цифровизации высшего образования в Узбекистане /International scientific journal «Modern science and research» 2023 volume 2 / issue 3 / uif:8.2 / modernscience.uz;
- Valiyeva N.X. Biznes ingliz tili darsida yangiliklar bilan almashinish afzallikkari / Society and innovations Special Issue – 02 (2022) / ISSN 2181-1415;
- O'zbekiston Respublikasining Qonuni, “Ta'limga to‘g‘risida”gi Qonunning yangi taxriri, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son;
- Валиева Н., Мухитдинова Н., Цифровизация обучения в школе бизнеса и предпринимательства/Рақамли иқтисодиёт: Ўзбекистонда ривожлантириш истиқболлари ва жаҳон амалиёти. Халқаро илмий-амалий онлайн конференция материаллари – Тошкент: Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби 2020y., 307-309.;
- Sodirjonov M. Inson kapitali rivoji shaxsning ongi bilim axloq-odobi, dunyoqarashiga bog'liq, URL: <https://yuz.uz/uz/news>;
- Эгамбердиев Ф. Т., Сайдрасулова М. С. Инсон Капиталини Ривожлантиришда Олий Таълимнинг Роли (Ўзбекистон Мисолида) /“Инсон капиталини ривожлантириш-миллий иқтисодиёт барқарорлиги омили” Халқаро илмий-амалий конференция илмий мақола ва тезислар тўплами (2023 йил 3 май) – Т. ЎзМУ, 2023y., 39 бет.
- Уваров А. Ю., Гейбл Э., Дворецкая И. В. и др. Трудности и перспективы цифровой трансформации образования [Текст] /; М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2019. — с.280;
- Бобылев А.В. Развитие учебной самоорганизации студентов в условиях цифровизации высшего образования /Казанский педагогический журнал №4, 2020. С.81;
- Mihaela Cozma Procedia the Challenge of Teaching English to Adult Learners in Today's World/Social and Behavioral Sciences 197 (2015) 1209 – 1214) (Available on www.sciencedirect.com).
- МАҲКАМОВ Б. Таълимда Рақамли Технологияларнинг Конвергенцияси Ўзбекистонда олий таълим / 2022 / №3 Высшее образование в Узбекистане — Higher education in Uzbekistan ISSN 2181-3051 16 б.]
- hoshimov_u_engliz_tili_uqitish_metodikasi_uquv_qullanma_2003.pdf <http://library.navoiy>



12. http://student39.ru/lector/Metody-_priemy_i_formy_obucheniya/
13. Метод Палмера <https://studfile.net/preview/9158886/page:33/>
14. Методики преподавания английского языка <https://tefl-tesol-certificate.com/blog/metodika-prepodavaniya-anglijskogo-yazyka#izuchenie-yazyka-s-pomoshchyu-perevodov>
15. Герасимова Н. И. Использование мобильных приложений в обучении иностранному языку на неязыковых факультетах УДК 378 2019. <https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-mobilnyh-prilozheniy-v-obuchenii-inostrannomu-yazyku-na-neyazykovyh>
16. Инглиз тилини ўрганиш учун 15 та энг яхши илова - Terabayt.Uz
17. Mukhittinova, N. (2020). PRIVILEGES OF COMPUTER ASSISTED LEARNING FOR INDEPENDENT LEARNERS. *East European Scientific Journal*, 7(12 (64)), 25-28.
18. Mukhittinova, N. A. (2023). The Importance of Implementing Digitalization into Educational System and its Impact on the Development of Teaching Process. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(7), 27-32.

